

23. O'rta arifmetik



Yondosh mavzu:
Reyting va yutuqlar

Ma'lumotlar, o'rtacha,
baravar,
miqdor, yig'indi



1. Bo'ling.

$$352 : 4$$

$$228 : 6$$

$$258 : 3$$

$$252 : 7$$

$$175 : 5$$

$$567 : 9$$



2. Olimpiadada o'quvchi beshta masalani yechdi. Quyida uning har bir masala uchun olgan ballari keltirilgan.



3 4 4 5 4

O'quvchi barcha ishi uchun necha ball oldi? Har bir topshiriq uchun u o'rtacha qancha ball oldi?



Ma'lumotlar ko'pincha turli qiymatga ega bo'lishi mumkin. Masalan, o'quvchining bugun olgan bahosi kechagi bahosidan farq qilishi mumkin. Xuddi shu misolni boshqa turdag'i ma'lumotlar haqida ham aytish mumkin. Ko'pincha, ma'lumotlarni tavsiflash uchun ularning o'rtacha qiymati topiladi.

Ma'lumotlarning o'rtacha qiymati umumiyligi miqdorni ularning soniga bo'lish orqali aniqlanadi.

3, 4, 4, 5, 4 baholarining o'rtacha qiymati:

$$(3 + 4 + 4 + 5 + 4) : 5 = 4.$$



3. Olimpiadaga har bir sinfdan 4 nafardan ishtirokchi keldi.

a) Har bir sinf to'plagan o'rtacha balni toping. Qaysi sinf o'rtacha balga ega?

b) Agar eng yuqori ball to'plagan ishtirokchi g'olib hisoblansa, olimpiadada qaysi sinf o'quvchisi g'olib bo'ladi?

	I ishtirokchi	II ishtirokchi	III ishtirokchi	IV ishtirokchi
4- "A"	20	33	45	22
4- "B"	30	17	26	31
4- "D"	43	46	37	30



4. Ikki qiymat orasidagi o'rta qiymatni toping. Ularni dastlabki qiymatlar bilan bir xil birliklarda ifodalang.

$$\begin{array}{r} 3\ 450 \text{ g} \text{ va } 4 \text{ kg } 270 \text{ g} \\ 7 \text{ km } 28 \text{ m} \text{ va } 1\ 364 \text{ m} \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 1 \text{ h } 45 \text{ min} \text{ va } 315 \text{ min} \\ 6 \text{ dm}^2 \text{ va } 320 \text{ cm}^2 \end{array}$$



5. Bo'shlidlarni misollar to'g'ri bo'ladigan qilib to'ldiring va daftaringizga ko'chirib yozing.

$$\begin{array}{r} + \begin{array}{r} \boxed{} 5 \boxed{} \\ \hline 2 \boxed{} 9 \end{array} & - \begin{array}{r} 7 0 \boxed{} \\ \hline \boxed{} 8 7 \end{array} & \times \begin{array}{r} \boxed{} 3 \boxed{} \\ \hline \boxed{} 6 \end{array} & - \begin{array}{r} \boxed{} \boxed{} 4 5 \\ \hline 1 \boxed{} 0 \end{array} | \begin{array}{r} 3 5 \\ \hline \boxed{} \boxed{} \end{array} \\ \hline 4 3 7 & 5 \boxed{} 3 & \begin{array}{r} + 3 2 \boxed{} 4 \\ \hline \boxed{} 6 \boxed{} 0 \end{array} & \begin{array}{r} - 2 \boxed{} \boxed{} \\ \hline \boxed{} \boxed{} \end{array} \\ \hline & & 2 \boxed{} 9 0 \boxed{} & 0 \end{array}$$



6. 4- "A" sinfda 31 nafar, 4- "B" sinfda 4- "A" sinfdagidan 4 nafar ko'p, 4- "D" sinfda esa 4- "B" sinfdagidan 2 nafar kam o'quvchi o'qiydi. Ushbu ifodalarning har biri nimani anglatadi?

$$31 + 4$$

$$31 + (31 + 4) + (31 + 4 - 2)$$

$$(31 + 4) - 2$$

$$(31 + (31 + 4) + (31 + 4 - 2)) : 3$$

23. O'rta arifmetik

7. Tenglamalarni yeching.


$$67\ 200 : (1\ 026 - y) = 1400$$

$$(7 \cdot x + 32\ 000) : 40 = 1\ 430$$

8. Daftaringizga rasmdagi kabi siniq chiziq chizing.

a) Yo'llar bilan belgilangan burchaklarning to'liq nomlarini yozing va ularning turini – o'tkir, to'g'ri yoki o'tmasligini ko'rsating.

b) Siniq chiziqning butun uzunligini toping.



9. Akmal bilan Madina qiziqarli masalalar yechishdi. Bolalardan ular nechta masala yechganligi so'ralganda, Akmal: "Men Madina yechgan masalalarning yarmini va yana 10 ta masala yechdim", deb javob berdi. Madina: "Men Akmal nechta masala yechgan bo'lsa, shuncha va yana 20 ta masala yechdim," dedi. Ular jami nechta masala yechganlar?

10. Hisoblang.

a) $(744\ 147 : 9 + 107 \cdot 42) \cdot 10 - 700\ 000$

b) $40\ 927 + (50\ 000 - 20\ 995 : 5) - 100 \cdot 308$

11. Aziza uch kun olimpiadaga tayyorgarlik ko'rdi. U birinchi kun 42 ta masala, ikkinchi kun birinchi kundagidan 14 ta ko'p, uchinchi kun esa ikkinchi kundagidan 2 marta kam masala yechdi. U kuniga o'rtacha nechtadan masala yechgan?